"MAHBUB UL-QULUB" ASARIDA HADISLARNING QO'LLANILISHI

Bahriddinova Gulshoda Nizomiddin qizi
Navoiy davlat universiteti, O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs magistranti
E-mail: gulshodanizomiddinqizi@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarining birinchi qismida hadislarning qo'llanishi tahlil qilinadi. Asardan olingan misollar asosida hadislarning axloqiy-didaktik mazmuni, badiiy fikrni kuchaytirishdagi o'rni va muallif qarashlarini asoslash vazifasi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: didaktik adabiyot, Alisher Navoiy, "Mahbub ul-qulub", hadis, sahih hadis, zaif hadis

Аннотация: В статье рассматривается использование хадисов в первой части произведения Алишера Навои «Махбуб ул-кулуб». На примерах из текста анализируются нравственно-дидактическое содержание хадисов, их роль в усилении художественной мысли и обосновании авторской позиции.

Ключевые слова: дидактическая литература, Алишер Навои, «Махбуб ул-кулуб», хадис, достоверный хадис, слабый хадис

Abstract: This article examines the use of hadiths in the first part of Alisher Navoi's Mahbub ul-Qulub. Examples from the text are used to discuss the ethical and didactic content of hadiths, their role in strengthening the literary argument, and their function in supporting the author's position.

Keywords: didactic literature, Alisher Navoi, Mahbub ul-Qulub, hadith, authentic hadith, weak hadith, fabricated hadith.

Kirish

Mumtoz Sharq adabiyotida insonni ma'naviy kamolotga yetaklash, axloqiy fazilatlarni targ'ib etish va jamiyatdagi illatlarni tanqid qilish muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan, pand-nasihat ruhidagi asarlar nafaqat badiiy-estetik, balki tarbiyaviy vazifani ham bajaradi. Alisher Navoiy ijodida inson kamoloti, adolat, halollik va ma'naviy poklik masalalari yetakchi mavzulardan hisoblanadi. Navoiy asarlarida

diniy-ma'rifiy qarashlar badiiy tafakkur bilan uyg'unlashadi. Qur'on oyatlari va hadislar axloqiy fikrni mustahkamlash, muayyan xatti-harakatga baho berish hamda o'quvchini mulohazaga chorlash uchun qo'llanadi. Ushbu maqolada ana shu xususiyat "Mahbub ul-qulub" asari misolida, xususan, uning birinchi qismidagi ayrim misollar asosida ko'rib chiqiladi.

"Mahbub ul-qulub" Navoiy ijodidagi muhim didaktik asarlardan biridir. Unda jamiyatning turli qatlamlari, kasb egalari va ularning xulq-atvori haqida fikr yuritiladi. Muallif adolat, mas'uliyat va vijdon bilan ish tutish masalalarini ko'tarar ekan, o'z davridagi ijtimoiy muammolarni ham tanqidiy nigoh bilan tasvirlaydi. Asarning ta'sirchanligi pand-nasihat bilangina cheklanmay, ayrim toifa vakillarining kamchiliklarini ochiq ko'rsatishi bilan ham belgilanadi.

Asarning birinchi qismida odil podshohlar, qozilar, muftiylar, mudarrislar va boshqa kasb egalariga doir mulohazalar uchraydi. Navoiy ularning faoliyatini axloqiy mezonlar asosida baholaydi. Bu o'rinda hadislar muallif fikrini mustahkamlovchi ma'naviy dalil sifatida xizmat qiladi. Ular orqali adolat, mas'uliyat va jamiyat oldidagi burch masalalari yoritiladi. "Odil podshohlar zikrida" faslida Navoiy "Vulidtu fiy zamonis sulton ul-odil" ("Men odil sulton zamonida tug'ilganman") iborasini keltiradi [1,14-b.]. Shuningdek, "Adlu soatin xayrun min ibadatis-saqalayn" ("Bir soatlik adolat insonlar va jinlarning ibodatidan afzal") mazmunidagi rivoyat ham beriladi [1, 14-b.]. Ushbu misollar adolatni hukmdor faoliyatining asosiy mezoni sifatida ko'rsatishga xizmat qiladi. Biroq bu rivoyatlarning hadis ilmi nuqtayi nazaridan darajasini belgilashda alohida manbashunoslik tekshiruvi zarur. Asarda keltirilgan shaklning o'zi ularning sahihligini tasdiqlash uchun yetarli emas. Asarda "Uqtul ul-mu'ziyot" ("Zararkunandalarni o'ldiring") iborasi ham tilga olinadi [1, 20-, 49-b.]. Navoiy bu mazmundagi ifodani ijtimoiy hayotga ko'chma ma'noda tatbiq etib, jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qiladigan va mansabini suiiste'mol qiladigan kimsalarni tanqid qiladi. Bunda diniy mazmundagi ibora badiiy talqin vositasiga aylanib, mutafakkirning ijtimoiy qarashlarini ta'sirchan ifodalashga yordam beradi. Navoiy

hazratlari ayrim mansabdorlarning xatti-harakatlarini yolg‘on da’volari bilan tanilgan Musaylima Kazzob obrazi bilan qiyoslaydi [1, 17-b.]. Bunday qiyos orqali Navoiy so‘z va amal birligi, rostgo‘ylik hamda mansab mas’uliyati masalalariga e’tibor qaratadi. Demak, asarda hadis va tarixiy-diniy ishoralar shunchaki bezak vazifasini bajarmaydi. Bu fikrlar axloqiy bahoni kuchaytirib, o‘quvchini jamiyat hayoti haqida fikrlashga undaydi.

Xulosa. “Mahbub ul-qulub”da hadislarning qo‘llanishi Navoiy didaktik uslubining muhim jihatlaridan biridir. Hadislar va diniy-tarixiy ishoralar adolat, halollik, mas’uliyat kabi tushunchalarni yoritish, muallifning ijtimoiy tanqidini kuchaytirish va o‘quvchini axloqiy xulosa chiqarishga yo‘naltirishga xizmat qiladi. Asarda ko‘tarilgan mansabni suiiste’mol qilish, vijdonan ishlash va jamiyat oldidagi burch kabi masalalar bugun ham ahamiyatini yo‘qotmagan. Shu bilan birga, asarda keltirilgan rivoyatlarning hadis sifatidagi maqomini aniqlash uchun ularni mustaqil ravishda ishonchli hadis manbalari bilan solishtirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. — Toshkent: Sano-standart, 2018. — 14–62-betlar.
2. Imom Ismoil al-Buxoriy. Sahihi Buxoriy. 1-jild. — Toshkent, 1991.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Sunniy aqiydalar. — Toshkent: Hilol nashr, 2016. — 42-bet.